

FAXRIYOR SHE'RIYATINING BADIY OLAMI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti assistenti

F.N. Buriyeva,

2-bosqich talabasi

S.Qilicheva

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asrning 80-yillari avlodiga mansub shoir Faxriyorning individul uslubida yetakchi ahamiyat kasb etuvchi janr-shakllar poetikasi, shuningdek, uning ijodi misolida o'zbek she'riyatiga modernizmning ifodalanishi xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Novatorlik, modernizm, individual uslub, poetik olam, estetik zavq.*

Bugungi o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan bo'lgan shoir va tarjimon, adabiyotshunos Faxriddin Nizomov – Faxriyor 1963- yil 5- oktabrda Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida tavvalud topgan. XX asrning 80-yillari, ya'ni adabiyotga kirib kelgan ilk yillaridayoq shoir she'riyati betakror ramz-u timsollari, kutilmagan poetik obrazlari bilan individuallik kasb etdi. Shoir ijodi uchun mudom yangiliklarga intilish, shakl va mazmun borasida novatorliklar yaratish xos. Shuning uchun ham uning she'rlari boshqa shoirlarlarnikidan anchayin farq qiladi. Uning ijod olamiga kirib borgan sari bu farqlansih, originallik namoyon bo'laveradi. 2023-yilda O'zbekiston miyosida 60-yillik yubeliyi keng miqyosda nishonlangan shoir muxlislar e'tirofi hamda qator mukofotlarga sazovor bo'lgan. Uning internet jurnalistika sohasida 1-darajali "Oltin qalam" sohibi bo'lganligi ham shu jumladandir.

Shoirning "Ayolg'u", "Dardning shakli", "Geometrik bahor" singari to'plamlari bizga ma'lum bo'lib, ular tarkibidagi ayrim she'rlar tahliliga to'xtalamiz:

Saraton.

Darmonday qurigan suvlar.

Buloqlarning ko'zlari o'yi.

Suvsoq soylar ilon kabi bilanglab

ketib borar

Suvloq yerlarga.

Bunda chanqamas quduqlar faqat ,

Yozning chanqog'in ko'rib,

Xijolatdan yerga kirib ketgan quduqlar.["Ayolg'u". 7-bet.]

Qachonki shoir individual uslubi ko'pchilik ijodkorlarnikidan yaqqol farqlanib originallik kasb etsa, bu uning ijod olamida o'z ovozigaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shoir Faxriyor, aytish mumkinki, ilk she'rlaridayoq bunga erishgan edi. Uning she'rlarini o'qigan kitobxon, muxlis buni darrov sezadi. She'rlarida hech kimnikiga o'xshamaydigan tashbeh, sifatlashish, ramz-u timsollardan qo'llash orqali an'anaviy she'riyatga modernistik uslubni singdirdi.

. *Badaniga botgan*

. *Tushning siniqlaridan*

. *U daf'atan uyg'onib ketar*

. *Yarim kechasi.[2.Dardning shakli. [5-bet]*

Yuqoridagi she'riy parchada paronim so'zlar (*tish-tush*) dan badiiy vosita yarata bilgan shoir uslubida bu kabi shaklga oid novatorliklar ko'plab ko'zga tashlanadi. Shakl oid badiiy san'atlardan o'rinli foydalanish ijodkor uslubining o'ziga xosliklaridan biridir. Ushbu she'rda lirik qahramonning ichki kechinmalari ruhiy holati betakror tasvirlangan. Shoirning ijodi bo'yicha ko'pgina tadqiqot ishlari ham amalga oshirilmoda. Jumladan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning quyidagicha fikrlari e'tiborni tortadi:

"Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy she'riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik estetik va ma'naviy qiyofaning kemtikligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi oydin o'zbek Faxriyor asarlarini o'qishi, o'qishi, o'rganishi, tahlil qilishga ehtiyoj sezishi kerak". (Noziklashuv jarayoni")

Kul xotira

Kuygan hislar kultepasidir

Tush

Kultepada o'ynagan bola

aft angorini ko'rib bo'lmaydi. [" Geometrik bahor". 12-bet.]

Ushbu she'rni o'qib har kim har xil tushunchaga ega bo'ladi. Ba'zilar she'rni o'qib zavqlansa, yana kimdir buni she'r deb bilmasligi mumkin, chunki tinish belgilari- yu qofiya ushbu she'rda ahamiyat kasb etmaydi. Lekin ushbu ijod mahsulida tizginsiz hissiyotlarning mavjudligi bois tasavvur olami keng bo'lgan inson bunday she'rdan aslo voz kecha olmaydi. Bu she'rning ma'no mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, chuqur mulohazani talab qiladi. Ayni shu shoirning o'ziga xosligidir, ya'ni u she'rlarini shunchaki yozmaydi. Shoirning she'rlarida fikriylik bo'lganda ham, hissiyot, ruhiy kechinma doimo ustuvordir.

Shakok tosh

Sirtiga suv yuqtirmagan tosh,

Sen shakoksan.

Gapning rosti-da

Necha yildirki, quruq yotibsan

Oqayotgan ko'zyosh ostida. ["Ayolg'u"24-bet.]

She'rni o'qigan kishida bir qarashda bu she'r orqali shoir nima demoqchi, qanday qilib toshni shakokga o'xshatish mumkin, degan savol paydo bo'ladi. Lekin shoir mana shu tosh necha yillik g'am-anduhlarning ostida yotganligini, qanchadan qancha insonlarning qiynalib ko'z yosh to'kkanligini bilishini yozadi. Shuning uchun ham u shakok tosh deb tasvirlaydi. Toshni hech kim va hech narsa yig'lata olmaydi.

Qorni biror marta to'ymagan shu yo'q

Zarbof to'n haqida o'ylarmi sira?

va hechsa mingyamoq jandasini u

Teskari kiyimoqni o'ylab ko'rarmu? [Dardning shakli . 8-bet]

Qornini zo'rg'a to'ydirib yurgan inson qanday qilib yaxshi kiyinish haqida o'ylaydi? Yo'q, o'ylamaydi. Qanday qilib bir burda non topishni o'ylaydi. Mingyamoq bo'lib ketgan jandasini teskari kiyishga hojat ham yo'q, teskarisi ham mingyamoq bo'lib yotibdi. Qorni to'q qorni ochning dardini, kiyimi butun esa kiyimi yamoqning dardini hech qachon his qilmaydi. Faxriyor ijodi keng qamrovli bo'lib, adabiyotshunos sifatida u ko'plab maqolalarning ham muallifi hisoblanadi. Uning

"Tashbehtar shoiri" nomli maqolasida shoir Bahrom Roʻzimuhammadning ijodiga oid sheʼrlari tahlil qilingan boʻlsa, "Eng sodda narsalarga ham ot qidirib" nomli maqolasida esa jahon adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan ijodkor, italyan Postmodern shoir Eujenio Montalening sheʼrlarini tahlil qiladi va "Baʼzan u yoki bu sheʼrga muallifning yetti uxlab tushiga kirmagan maʼno yuklashi va eng qizigʻi oʻsha toʻgʻri boʻlib chiqishi mumkin", deya italyan shoirining ijod namunalari baho beradi. Bundan tashqari et cetera (va boshqalar) toʻplamiga tegishli sheʼrlari ham mavjud, lekin ularni bir oʻqishda maʼnosiga tushunish qiyin, ushbu sheʼrlarga tasavvurga boy boʻlgan insonlarga tushuna oladi. Shunchaki shoir tasavvurni ishga solishga undaydi oʻquvchini.

U yuvib oladi gunohlarini

Onasining koʻz yoshlari bilan...

Bu sheʼrni hamma oʻz yoʻlicha tahlil qiladi. Shoir nima demoqchi ekanligini izlanibgina topish mumkin. Dunyoda cheksiz mehrga loyiq bir inson bor u ham boʻlsa mushtipar onadir. U oʻz farzandi uchun dunyolardan kechishga ham tayyor. Hozir yuqoridagi unsiz satrlarda esa ona farzandining gunohlarini kechirishini Ollohdan oʻtinib soʻrashi tasvirlangan, qanday taʼsirli misralar.

Suyak surar... taqdir ham.[" Malol va majol". 6-bet.]

Mana shu bir qatorgina sheʼrning zamirida qanchadan qancha hikmat yotibdi.

Xolosa shuki, modern sheʼriyatida oʻz oʻrniga ega boʻlgan shoir Faxriyorning sheʼrlarini muallifsiz berilgan taqdirga unga tegishli ekanligini sezildi. Bu esa, shoir poetik olamining betakror jozibasini, fikriy oʻziga xosligini bildirib, sheʼriyatning chegara bilmas imkoniyatlarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faxriyor " Dardning shakli" Toshkent " Yozuvchi " nashriyoti 1997- yil.
- 2." Oʻzbek sheʼriyatida yangicha uslub kashshofi"(Faxriyor ijodi haqida). H. H. Ahmedov, H. O. Ergasheva(6- bet).
- 3."Faxriyor sheʼrlarida badiiyat" S. Hamrayeva Talqin va tadqiqotlar ilmiy jurnali. (13- bet).